

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA 9-SINFLARDA “ME’MORIY OBIDALAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Rahmatova Manzura To‘lqin qizi

ToshDO‘TAU O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: X.B.Kadirova

ToshDO‘TAU O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi kafedrası dotsenti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mustagillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal sur‘atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo‘jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta’lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasiga orilgan vazifalar nihoyatda ko‘p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir. Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat, muomalani ta’minlashi bilan bog‘liq.

Bunda axborotlarni bosh alarga yetkazish, o‘zaro fikr almashish amalga oshadi. Uning vositalari esa turli ko‘rinishlarga ega. Xususan, og‘zaki, yozma, shuningdek, tilshunoslikda paralingvistik deb nom olgan vositalar bo‘lishi mumkin. Oxirgi turkumga har xil imo-ishoralar, mimikalar kiradi.

Nutqning yana bir vazifasi uning tafakkur quroli ekanligidadir. So‘z bilan «o‘lukni tiriltirish va aksincha, tirikni o‘ldirish mumkin» (Navoiy).

Chunonchi o‘zbek tili ta’limining takomillashtirilgan standarti tayyorlandi. Unga ko‘ra:

grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlar:

- fonetika;
- morfologiya;
- sintaksis;
- leksikologiya;
- so‘z tarkibi;
- so‘z yasalishi;
- yozuv va imlo;
- nutq uslublari;
- uslubiyatga oid tushunchalar;

nutqni o‘stirish:

birinchi yo‘nalish: o‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish;

ikkinchi yo'nalish: o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rgatish, adabiy talaffuz me'yorlari, shuningdek, lug'aviy sinonimika, qo'shimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish;

uchinchi yo'nalish: o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan.

Ana shundan kelib chiqib, o'zbek tili ta'limining asosiy *maqsadi*: o'zbek tili mashg'ulotlari o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog'i darkor. Ayni fursatda, rivojlangan axborot-texnologiyalar davrida mazkur ma'suliyatli vazifani bajarishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'lalilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Interaktiv metodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni, talabalarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi. O'zi uchun ham oila uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi, hamma jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat albatta dastlab oilada, keyinchalik esa ta'lim muassasalarida shakllanadi.

O'quvchilarning ijobiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali interaktiv metodlardan namunalarni Singapur ta'limidan ko'rib o'rganib olish mumkin. Interaktiv metodlar o'qituvchiga darsni samarali va qiziqarli tashkillashtirishda, dars vaqtida intizom va bilim sifatining yuqori pog'onalarda ushlab turishga yordam beradi. Hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan axborot-texnologiyalar davrida an'anaviy shakldagi darslar o'quvchilar uchun zerikarli va foydasiz bo'lib bormoqda. Faqat yozma vazifalar bajarishni ko'plab o'quvchilar inkor qilmoqda. Yozma vazifalar bilan birgalikda o'qib tushunish, tinglab tushunishga doir vazifalar, quvnoq estafeta va musobaqalar bilan tashkillashtirilgan darslar ancha samarali va qiziqarli bo'lmoqda.

Quyida o'zbek tili darslari jaroyonida qo'llash mumkin bo'lgan ta'limiy o'yinlarning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

Dastavval sinf o'quvchilarini 3 ta guruhga bo'lib olamiz. Ularga o'tgan darsda uyga vazifa qilib Ichan Qal'a, Ark va Registon haqida o'qib, ma'lumotga ega bo'lish edi.

1. "Salomlashuv" metodi. Bunda o'quvchilardan turli xil salomlashishga doir bo'lgan ibora va so'zlarni aytishlari kerak va bo'ldi boshqa salomlashuvga doir ibora qolmadi degan vaziyatda qaysi guruh yana qo'shimcha 1ta ibora aytsa o'sha guruhga 5 ball berilishi aytiladi.

Bu metod o'quvchilarni kayfiyatini ko'tarishga, fikrlash doirasini kengaytirish va ijodkorlikni oshirishga yordam beradi.

2. Barcha o'quvchilar o'rnilaridan turib bir qator bo'lib saflanishadi va ularga o'tilgan mavzular yuzasidan savollar o'qib beriladi savollarga faqat harakat orqali (o'tirib, turish) javob berishlari kerak (gapirib qo'ygan o'quvchi o'yinni tark etadi), agar o'quvchi savolga "ha" deb javob bermoqchi bo'lsa o'rnidan turadi, agar "yo'q" degan javob bo'lsa o'tiradi. O'qituvchi bu harakatlarni orqali o'quvchilarni kuzatib baholab boradi, eng so'ngida qolgan o'quvchi jamoasiga yana 5 ball taqdim etiladi.

Misol uchun:

1. *"EKOSAN" jamg'armasi 1993-yilda tashkil topgan.* (xato, o'quvchilar o'tirishi kerak)

2. *Uyga vazifani bajardim*

3. *Bosh bo'laklarga ega va kesim kiradi* (to'g'ri, o'quvchilar o'rnilaridan turishlari kerak)

4. $5 \times 5 = 30$ (xato)

5. *Dasrda faol qatnashishga va'da beraman.*

6. *Kesim doimo gapning o'rtasida keladi* (xato)

Bu enerjyazer orqali o'tilgan mavzular qiziqarli shaklda takrorlanib olinadi, o'qituvchi qaysi o'quvchi qanday holatda: kayfiyati qanaqaligi, darsga tayyormi, yoki yo'q, hattoki qorni ochmi yoki to'qligini, umumiy qilib aytganda grammatik mavzularga doir savollar orasida qoidalardan tashqari savollarni berib ularni ruhiy holatini ham o'rganib oladi va eng asosiysi uhlab, charchab qolgan bolani ham uyg'otib, uni darsga qiziqtirib jalb qiladi.

3. O'quvchilar 1 daqiqa vaqt ichida o'tilgan mavzular yuzasidan 1 dona savol yozishlari kerak bo'ladi va birinchi guruh o'quvchilari savollariga ikkinchi guruh, ikkinchi guruh savollariga uchinchi guruh, uchinchi guruh savollariga esa birinchi guruh o'quvchilari javob berishlari kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri topilgan javobga 2 ball beriladi.

4. Guruhlarga konvert, yelim va A3 formatdagi oq varoq tarqatiladi, bu konvertlar ichida bitta me'moriy obidabing (Registon, Ark, Ichan Qal'a me'moriy obidaları) rasmining bo'laklari bo'ladi. O'quvchilar bir daqiqa ichida bo'laklarni A3 formatdagi varoqqa to'g'ri birlashtirgan holatda yelimlab chiqishlari lozim va hosil bo'lgan rasmdagi me'moriy obida qayerda joylashganligi va nomini topishlari kerak bo'ladi. Bu shartda o'quvchilardan tezlik, zukkolik va bir jamoa bo'lib ishlash talab qilinadi.

Bu o'yinni birinchi va to'g'ri bajargan guruhga 5 ball, ikkinchi bajarganga 4 ball va uchunchi-3 ball beriladi.

So'ngra o'qituvchi tomonida 3 ta me'moriy obidaga doir bo'lgan 4-5 tadan qiziqarli ma'lumotlar o'qib eshittiriladi, o'quvchilar esa uni diqqat bilan eshitishlari kerak bo'ladi. Ma'lumotlar 1 marta o'qib beriladi. Keyin guruhlarga konvert tarqatiladi, konvertda o'qituvchi o'qib bergan ma'lumotlar aralash shaklda bo'ladi, guruh a'zolari esa o'zlari yelimlab chiqqan rasmdagi me'moriy obidaga tegishli ma'lumotlarni topib, A3 oq varog'iga yelimlab chiqishadi.

ARK

Atrofidagi maydon sathidan qariyb 20 metr balandlikda ko'tarilgan va taxminan 4 gektar maydonni egallagan monumental qal'a. Qal'a shaharning eng qadimiy me'moriy va arxeologik yodgorligi hisoblanadi. Bu qal'a tepalikni tashkil etgan ko'p asrlik vayronagarchilik qatlamlariga ega shaharning eng qadimiy qismi hisoblanadi.

Yodgorlik devorlaridan birida bir vaqtlar amirlikning qudrat ramzi bo'lgan katta charm qamchi osilgan.

Yodgorlik dastlab milloddan avvalgi I asrda qurilgan. Arablar istilosiga qadar u yerda shahar hokimlari — buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (IX—X asrlar) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (XI—XII asrlar) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) yodgorlik bir necha bor vayron qilingan.

Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (XVI asr)da shakllangan.

REGISTON

“qumloq joy” degan ma'noni anglatadi

Bu maydonda hukmdorlarning farmonlari o'qilgan, turli bayramlar va tadbirlar o'tkazilgan.

Ushbu me'moriy majmua Ulug'bek, Tillaqori, va Sherdor madrasalaridan tashkil topgan. Madrasalarning devorlari koshinli bezaklarga ega, madrasa eshiklariga esa Qur'on oyatlari va suralari bitilgan.

Markaziy Osiyodagi me'morchilikning eng noyob namunalarini o'z ichiga olgan bu maydon 2001-yilda YuNESKO tomonidan Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Majmuadagi birinchi madrasa bo'lgan Ulug'bek madrasasi 1417-1420-yillarda temuriylardan bo'lgan sulton va olim Ulug'bek tomonidan qurilgan. Ulug'bek madrasasi XV asrning eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biri bo'lgan. Ushbu madrasa talabalari orasidan ko'plab olimlar va faylasuflar yetishib chiqqan.

Ulug'bek va Sherdor madrasalarining o'rtasida joylashgan Tillaqori madrasasi 1646-1660-yillarda Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan qurdirilgan. Ushbu obida bezaklarida ko'p miqdorda oltin qo'llanilganligi sababli bu madrasa "Tillaqori" ya'ni "tilladan ishlov berilgan" den nomlangan. "Tillaqoridan" nafaqat madrasa, balki markaziy jome' masjidi sifatida ham foydalanilgan.

1619-1635-yillarda qurilgan Sherdar madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa 2 qavatdan iborat. Madrasaning nomi kirish qismidagi oq ohuni quvayotgan sher tasviridan kelib chiqqan. Binoning rejalashtirilishi va bezaklarida Ulug'bek madrasasi asos qilib olingan. Ushbu madrasada, o'z davrida ilmi toliblar uchun ikkita qo'shimcha qishki o'quv zali ham barpo etilgan.

ICHAN QAL'A

Yodgorlik qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan bir butun boshli shahar-yodgorlik bo'lib, uning o'tmishidagi taqdiri, me'moriy obidalari dunyoning eng qadimgi madaniy voha - Xorazmning tarixiy, madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'likdir.

O'zbekistonning eng ko'hna muzeylaridan biri bo'lgan yodgorlik tarixiy me'moriy Davlat muzey-qo'riqxonasi 26 ga maydonda joylashgan bo'lib, yodgorlikning ko'hna devorlari bilan o'ralgan.

2 500 yillik otmishiga ega bu shahar 26 gektar maydonga ega bolib, hozir 390 ta xonadonda 2500 dan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Rivoyat qilinishicha, Nuh alayhissalom davrida dunyoni suv bosib qaytganidan song, paygambar oz ogli Somga sayohatda davom etishini aytadi. Paygambarzoda yol yurib, bir cholga kelib qoladi. Chanqoqdan madori qurigan karvon shu qumlikda toxtaydi. Suv qidirib, erni kovlaganda darrov suv chiqadi. Undan chanqogini qondirgan Som beixtiyor "hey, voh" deb yuboradi. Keyinchalik shu qumlikda bir qala bunyod ettiradi.

Biz uchun yangilik bolgan bu manzil Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan 1897 yilda qurdirilgan. Saroy uchta katta kompleksdan iborat: birinchi

hovli xon va saroy ahli xizmatkorlar uchun, ikkinchi hovlida xon va uning oila azolari yashaydigan bir necha ayvon, uchinchi hovli-ovropacha uslubda qurilgan ayvon va xonalardan iborat. Saroy ortasida hovuz, gulzor, quyuq soyali gujum daraxtlari ekilgan bogdan iborat.

Bu shartni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi, vazifa bajarib bo'lgandan so'ng har bir guruh o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni birma bir o'qib berishadi, qolgan guruhlar esa diqqat bilan tinglashadi.

O'ziga tegishli ma'lumotlarni birinchi to'g'ri topgan guruhga 10 ball, ikkinchi bajarganga 9 ball va uchunchi-8 ball beriladi.

Bu "Qo'shnimni top" metodi orqali o'quvchilarni diqqatini bir joyga qaratib olinadi, eshitib tushunish ko'nikmasini oshirilib, tegishli ma'lumotlarni ajratib olish, guruhda hamjihatlikda ishlash, hamjihatlik, tezlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishda qo'l keladi. Bu metodning yana bir ijobiy tomonlaridan biri: guruh birinchilikni qo'lga kiritish uchun eng faol o'quvchidan tortib, o'zlashtirishi qiyinroq bo'lgan o'quvchigacha birgalikda harakat qiladi va ma'lumotlar tekshirilayotgan vaqtda bir-birlarini hurmat qilib eshitishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu metodlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad barcha o'quvchilarni darsga qamrab olish, ularni hamjihatlikda bir-birini fikrini hurmat qilgan holatda ishlashga o'rgatish, ko'plab chet elliklar qiziqish bildirayotgan, bizning faxrimiz, ota-bobolarimizning eng qimmatbaho yodgorliklaridan biri bo'lmish me'moriy obidalarimiz haqida qiziqarli va kerakli ma'lumotlar bilan ulashish va o'quvchilarda vatan tuyg'usini, vatanga bo'lgan mehr va sadoqat kabi tuyg'ularni yuksaltirishdan iborat edi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev, Q. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. Eshpulatova, X.M. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №1A. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-innovatsion-texnologiyalarning-turlari-va-ahamiyati>
3. Beysenova, A., Kadirova, X. Mashg'ulotlarda o'zbek va rus tillaridagi turg'un birikmalarining lingvokulturologik qiyosiy tahlili // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mashg-ulotlarda-o-zbek-va-rus-tillaridagi-turg-un-birikmalarining-lingvokulturologik-qiyosiy-tahlili>
4. Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda metafora. // «Развитие образования и культуры в условиях цифровизации: проблемы и перспективы». Материалы II Международной научно-практической онлайн-конференции: 27- 28 мая, 2022 год. https://msu.dvaoblaka.ru/media/2022/08/62f14d800900f_Сборник_окончательный_4.pdf
5. Худайбердиева И., Кадирова Х. (2022). Трудности в различии падегов русского и узбекского языков. *Перспективы узбекской прикладной*

филологии, 1 (1).

Получено

с

[https://compling.navoiy-](https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences3/article/view/277)

[uni.uz/index.php/conferences3/article/view/277](https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences3/article/view/277)

Havolalar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_arki
2. <https://meros.uz/object/ichan-qala>